

Nodira MUSTAFAYEVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O'zbek va chet tillari kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: nodira197605@gmail.com

Tel: (99) 488-41-49

Renessans ta'lim universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD) N.Khursanov taqrizi asosida

GRAMMATICAL SPECIFICITY OF THE LANGUAGE OF SHAROF BOSHBEKOV'S WORKS

Annotation

Sharof Boshbekov's works have their own characteristics. The unique feature of his works is that he used simple sentences effectively. In order for the work to be impressive and understandable, the creator has achieved a natural and effective description of the dialects of the characters of the work in a dialogical manner, by using words appropriately to express the inner experiences of the character in order to interest the reader.

Key words: Language, expression, grammatical aspect, writer, simple, sentence, work, creator, method, hero, author, short story.

ГРАММАТИЧЕСКОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ШАРОФА БОШБЕКОВА

Аннотация

Работы Шарофа Бошбекова имеют свои особенности. Уникальной особенностью его творчества является то, что он эффективно использовал простые предложения. Для того, чтобы произведение было впечатляющим и понятным, автор добился естественного и эффективного описания диалектов героев произведения в диалогической форме, используя слова, уместно выражающие внутренние переживания героя, чтобы заинтересовать читателя.

Ключевые слова: Язык, выражение, грамматический, аспект, произведение, писатель, простое, предложение, создатель, метод, герой, автор, рассказ.

SHAROF BOSHBEKOV ASARLARI TILINING GRAMMATIK JIHATDAN O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Til hodisalarini tadqiq yetishning yangi sohalari tobora rivojlanmoqda. Kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, psixolingvistika, sosiopragmatika kabi sohalar dunyo tilshunosligida ulkan tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab olgan nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas. Muallif Sh.Boshbekov asarlari asnosida tilning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan. Eng muhimi xoriy va o'zbek tilshunoslari ilmiy manbalariga tayanib muallif ilmiy izchillik asosida xulosalarni taqdim etadi. Maqolani chop etish maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: Til, ifoda, grammatik jihat, yozuvchi, sodda gap, asar, ijodkor, usul, qahramon, muallif, kinoqissa.

Kirish. Sharof Boshbekov asarlarida o'ziga xos jihatlari bor. Asarlarining o'ziga xos jihati shundaki, sodda gap turlaridan unumli foydalanagan. Ijodkor asarning ta'sirchan, tushunarli bo'lishi uchun asar qahramonlarining shevalaridan dialog tarzda, kitobxonni qiziqitirish uchun qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda so'zlarni o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish orqali tabiiy va ta'sirchan tasvirlab berishga erishgan.

Sharof Boshbekov asarlari tilning grammatik jihatdan o'ziga xosligi shundan iboratki, tilning taraqqiyoti yozuvchi-ijodkorlar va olimlari say-harakatiga bevosita bog'liq. Tadqiqotchilar tilning nazariy asoslari bilan shug'ullanishsa, ijodkorlar undan foydalanish asnosida yangicha ifoda usullari, ta'bir joiz bo'lsa, ayrim vositalarni yaratishga ham muvaffaq bo'ladi. Har bir ijodkor tildan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Xususan, dramaturg Sharof Boshbekovning ham o'ziga xos yondashuvi bor. Buning amaldagi ifodasini "Temir xotin", "Falakning gardishi" asarlari tahlil qilish orqali kuzatishimiz mumkin. "Temir xotin" asarida shunday o'rinlar bor: "QO'CHQOR. «Sal-pal»mish! Yechilmayotganidan ham biluvdim, sening qo'ling tekkanini! Mol arqonlab o'rganib qolgansan-da, bog'lagan tuguningni matroslar ham yecholmaydi! E, qarashvormay ket! Bo'pti, kechirdim, qo'lni bo'shat.

Qumri «yo'q» deganday bosh chayqaydi.

Bu uyda men kimman o'zi, a? (Baqirib.) Qo'chqormanmi yo Qo'chqormasmanmi?! Qo'chqorman!!! (Birdan past tushib.) Qo'chqor ekan, deb bog'lab tashlayveradimi?.. Sho'ri bor odam ekanman o'zi... (Yana baqirib.) Hech bo'lmasa, suv ber, ichim yonib ketyapti! (Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Avvalo, Sharof Boshbekovning tildan foydalanishdagi o'ziga xos jihati bu – uning sodda gap turlaridan samarali foydalanish mahoratida. Ayrim ijodkorlar badiiy asarda uzundan uzoq bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplarni qo'llaydi, natijada fikr chalg'iydi. Sharof Boshbekov sodda gaplardan unumli va maqsadli foydalana oladi:

U telbanamo kayfiyatda bir nimalarni pichirlar, nogoh to'xtaganicha bir nuqtaga tikilib qolar, ozgina shovqindan ham cho'chib tushardi. U katta ko'chadan ketib borarkan, "Binafsha kafesi" degan yozuvga ko'zi tushdi. "F" qarfi qiyshayib qolgan. Kallasida beixtiyor "Binafsha kafesi", "Binafsha kafesi" degan o'y charx ura boshladi. Chaqaloqning endi rostakam qorniochdi shekilli, yana g'ingshiy boshla (Sh. Boshbekov. "Falakning gardishi" asari).

Matnda asar qahramonlarining asli yashash hududini ko'rsatish maqsadida ularning nutqida ayrim sheva elementlari ham saqlab qolinadi:

QO'CHQOR (sevinib). Yaxshi debsiz, Alomatxon! Tarbiya bergan ota-onangizga rahmat! Rakatoping! Yo'q, shu kiyimingiz ham yaxshi-yu, endi, o'zingizdan qolar gap yo'q, bu yog'i qishloqchilik... Yuring, uyga kirib ko'raylik-chi, xotinning ko'ylak-po'ylagi bormikan. E, anovi ketib qolgan xotinning-da! Qani... (Uyga taklif qiladi. Uning ketidan qarab.) Bay-bay-bay, jannat, jannat! Shu, jannatdagi huru g'ilmonlar aslida o'zimizning zovudlarda tayyorlanib, keyin o'sha yoqqa jo'natiladimi, deymen-da... (Ichkariga kirib ketadi.) (Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Sharof Boshbekov bir bosh bo'lakli sodda gaplardan ko'p foydalanadi. Bu o'zbek tili nutq tabiatiga mos holatdir. Boshqa flektiv tillarda ega mavjud bo'lmasa, kesimning o'zi gapni tashkil qila olmaydi. O'zbek tilida esa kesimning o'zi gapni tashkil qilaveradi, nutq vaziyatiga ko'ra fikr ifodalay oladi: Yog'och to'sinlar orasidan oynasi darz ketgan romli surat topib oldi.

Unda Shavkat, xotini Surayyo va uch-to'rt yoshlardagi o'g'li—

Botir kulib turishibdi.

Suratni qo'lida ko'targanicha, negadir, u yoqdan-bu yoqqa izillab yugura boshladi. So'ng holdan toyib, umidsizlik bilan o'tirib qoldi.

Hovli burchagida o'g'lining uch g'ildirakli velosipediga ko'zi tushib, fig'oni battar falakka chiqdi.

Aqldan ozadigandarajaga yetdi.(Sh. Boshbekov. "Falakning gardishi" asari).

Matnning o'quvchiga tushunarli va ta'sirchan bo'lishi matnning morfologiyasi bilan ham bevosita bog'liq. Muallif asar matnida bu vaziyatda nisbatan olmoshlardan ko'proq foydalangani kuzatildi:

"OLIMJON qutining qopqog'ini ochgan edi, u yerda, qo'g'irchoqqa o'xshab ketadigan, nihoyatda go'zal qiz turardi. Badaniga silliq, yaltiroq mato tortilgan.

QO'CHQOR (hayratdan og'zi ochilib). Vo-o!..OLIMJON (faxrlanib). Qalay?

QO'CHQOR (birdan). E-e, odamning boshini qotirasana!

Magazinning oynasiga kiyim kiyg'izib qo'yadigan-ku bu

OLIMJON (xafa bo'lib). Yetti yillik mehnatim bu!

«Magazin»mish-a! (Sh.Boshbekov."Temir xotin" asari)

Keltirilgan misoldan ko'rinish turibdiki, ajratib ko'rsatilgan so'zlar olmosh so'z turkumiga mansub bo'lib, o'ziga xos ma'no va vazifa bajarishga xizmat qilgan. So'z turkumlarining qo'llanilish chastotasi, bizningcha, nutq vaziyati va fikr mavzusi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Diologik nutq aks etgan matnlarda olmoshlarning nisbatan ko'proq ishlatilishi tabiiy, masalan:

QO'CHQOR. Xiz... Xizmat yo'q... (Karavotga ishora qilib.) Qani, buyoqqa o'ting, Alomatxon...Yo'q, yo'q, ko'rpachaga, ko'rpa-chaga...

ALOMAT.(karavotning bir chetiga qimtinibgina o'tirib).

Rahmat, yaxshi o'tiribman.

Qo'chqor haliyam o'ziga kelolmas, lekin og'zi qulog'ida — go'yo yuzida kechagi tabassum qotib qolganday edi. Kashfiyotining unga shu qadar ta'sir etganidan Olimjon ham xursand.

OLIMJON. Bo'lmasa, Qo'chqor aka, siz bemalol gaplashib o'tiravering, men narsalarimni joylashtiray. O'sha hujra biznikida, a?

QO'CHQOR. (beixtiyor «sizlashga o'tib). Iye, so'rab o'tirasizmi, o'zingizning uyingiz-ku, Olimtoy!..

Olimjon yig'ma karavot, sumka va boshqa anjomlarini ko'tarib, ichkariga kirib ketadi.

(Anchadan keyin.) Ha-a... Zap kelibsiz-da... (Dovdirab.) Ichkarida muzday ayron bor, bir kosagina olib chiqaymi?

(Sh.Boshbekov."Temir xotin"asari)

So'zlovchining o'z fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari ifodalangan matnlarda olmosh so'zlar deyarli ishtirok etmaydi:

OLIMJON. Kechirasiz-u, Qo'chqor aka, odam degan og'ziga nima kelsa qaytarmay gapiraveradimi! Nima deyatganingizni tushunyapsizmi? O'zbek qayoqda-yu, qo'y qayoqda! E, tavba... (Kuyinib.) (Sh.Boshbekov."Temir xotin" asari)

Kinoqissa janriga mansub asarlar, ayniqsa, Sh.Boshbekov qissalari matnida yuklamalardan modal munosabatlarni ifodalashda ustalik bilan foydalaniladi:

To'satdan Shavkatning g'azabi qaynab, yig'lamsiraganicha baqira ketdi:

Nega tashlab ketarkanman, a, nega tashlab ketarkanman! Axir bu yorug' jahonda shundan boshqa hech kimim yo'q-ku!.. O'ylab gapiryapsizmi, qanday tashlab keta-a-ay?! hamshira uning bunchalik kuyinishini kutmagan edi — qo'rqib ketdi. (Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Ajratib ko'rsatilgan til birliklaridan anglashilib turibdiki, demak, suhbat tarzidagi nutqiy vaziyatlarda yuklamalarning faol qo'llanilishi alohida pragmatik mazmunning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Tavsifiy-tasviriy matnlarda esa sifat so'z turkumiga doir so'zlarning keng va faol ishlatilishi ham o'ziga xos pragmatik maqsadga erishuvning muhim omili sanaladi.

"Dom"ning ikkinchi qavatidagi Shavkatning uyi. Xonadon sohibining unchalik boy bo'lmasa ham o'ziga to'q yashayotgani ko'rinish turibdi: yerda cho'g'day gilamu, shipda billur qandil. Javonda antiqa idish-tovoqlar. To'rda televizor, ustida o'sha oynasi darz ketgan surat. Hatto dahlizga ham qip-qizil gilam poyonдоз to'shalgan.

(Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Kuzatilganidek, tavsifiy xarakterdagi matnlarda muallif matn orqali adresatga o'z qahramonining ichki va tashqi sifatlarini belgi bildiruvchi so'zlarni o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish orqali tabiiy va ta'sirchan tasvirlab berishga erishgan.

Kinoqissalarning o'ziga xos jihati shundaki, ularda tavsif va tasviriylik ancha ustun bo'ladi. Bu kabi holatlarda yozuvchining aniqlovchi va izohlovchi so'zlarga murojaat qilishi talab qilinadi. Rassom chizmoqchi bo'lgan manzarasiga ranglarni tanlab olgani kabi badiiy matn muallifi ham shu nutqiy vaziyat, nutqiy aktga monand til birliklarni tanlaydi, tafakkurda ularni saralaydi, qaysi so'z qaysi nozik ma'noni anglatadi olishini chamalaydi, nihoyat, kommunikativ maqsadga muvofiq jumla tuzadi. Natijada asar muvaffaqiyatli chiqsa, o'quvchi undan ta'sirlanadi, zarur xulosalarni chiqara oladi, mulohaza qiladi. O'quvchi mulohaza, mushohada qilishi uchun u tasavvur qila olishi kerak. Kinoqissalar adresatga xuddi shu imkoniyatni yaratib beradi. Matn o'quvchi maktab o'quvchisi bo'lishi, umuman, kitob o'quvchi, rejissyor yoki rolni ijro etuvchi aktyor bo'lishi mumkin, shuning uchun so'zlovchiga, yozuvchiga oson bo'lmaydi, asar muvaffaqiyatli chiqishi uchun mazkur adresatlarning hammasini nazarda tutishi, ularga tushunarli bo'ladigan til vositalarini qo'llashi, muhim nutqiy aktlarni yarata olishi lozim bo'ladi.

Matnlarda turli turkum so'zlarining faol va o'z o'rnida qo'llanilishi ham alohida kommunikativ va pragmatik maqsadlarning ta'minlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aniqlovchi vazifasida deyarli barcha mustaqil so'z turkumlari kela oladi, biroq qaysi biri qaysi holatlarda ta'sirchan ifodani ta'minlashi mavhum. Shu o'rinda quyidagi matnga diqqat qilamiz: Muhtasham xonada Shavkat shifanerdan kiyim-kechak, tortmadan har xil taqinchoqlarni olib kelib, stoldagi choyshabga tashladi. Ora-sira derazadan hovliga mo'r alab qo'yishni ham unutmayapti.

Narigi xonadan katta sumka ko'tarib olgan Jamshid chiqdi.

(Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar, ta'kidlangani kabi, sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, birgina o'rinda harakat belgisini ifodalovchi ravish so'z ishtirok etmoqda. Misoldan ayonki, xususiyat, holat bildiruvchi sifatlar tavsifiy matnlarda ko'proq qatnashishi va uzatilayotgan axborotning ta'sirli bo'lishini ta'minlab berishi tabiiy.

Shu o'rinda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot jarayonida til birliklarining ishtirokini misollar orqali tahlil qilishga harakat qilamiz: QUMRI.«Hukumat ichmanglar, deb qaror chiqarib qo'yibdi, bu ahmoqqa shuyam ta'sir qilmaydi», dedilar.

QO'CHQOR. Hoo, qarorniyam bilarkanlarmi! O'zi sakkizinchi sinfda qolib ketgan! Chalasavod! Rasmi yo'q ekan, deb gazit o'qimaydi!

QUMRI. O'zingiz ham o'qimaysiz-ku?

QO'CHQOR. Men vaqtim yo'qligidan o'qimayman, u savodi yo'qligidan o'qimaydi! Safar-ku, mayli. Sen-chi, sen? Shuncha gapni eshitib, qanaqa qilib chidab turding? Eringni shularga talatib qo'yaverdingmi? E, seni xotin qilib yurgan menga ming rahmat-ye! Xo'p, soldatlar nima deyishdi?

QUMRI. «Ras, duva, vzali» deyishdi.

QO'CHQOR. Nima-li?

QUMRI. «Vzali».

QO'CHQOR. «Vzali», o'qimagan! «Raz-dva» mish! Nima, armiyada faqat ikkigacha sanashni o'rgatar ekanmi? Bir munday, yuz-yuz ellikkacha sanamaydimi, men o'zimga kelib olmayman-mi! Sulayib yotgan bokschi g'ayam o'ngacha sanaydi-ku, shunchalik ham bo'lmadikmi? Mayli, bo'lar ish bo'пти, qo'lni yech.

(Sh.f Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Muloqot shakli dialog bo'lgani sababli matnda otlardan keyingi faollik olmoshlarga, keyingi o'rin fe'l so'z turkumiga tegishlidir. Demak, mazkur vaziyatda harakat emas, shaxs yoki shaxsiyat muhimroq.

Matnda so'z tartibi masalasini ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Zero gapdagi so'zlar tartibining o'zgarishi ham ko'plab uslubiy-ekspressiv o'zgarishlarga olib keladi. Fikrning muayyan nuqtasi urg'ulansa, matn mazmuni boshqa tarafga o'zgarishi ham mumkin.

Sharof Boshbekov asarlari matnlarida yordamchi so'z turkumlaridan ham samarali foydalanilgan. Quyidagi parcha misolida muallifning yordamchi so'zlardan foydalanish mahoratiga guvoh bo'lamiz, asarning badiiy qimmatini oshirishda, badiiy niyatning o'quvchiga tushunarli tarzda bo'lishini ta'minlashda yordamchi so'zlarning matn tarkibidagi o'rni va ahamiyati masalasiga to'xtalsak. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qaratamiz:

OLIMJON . Axir bu odam emas-ku, Qo'chqor aka, temir-ku, negatashunmaysiz?! Ichi to'la sim, plastmassa, yarim o'tkazgichlar! Bu — mashina! E, gapiraveradimi har narsani! Ertaga sinovdan o'tolmasa-yu, buzib tashlasam nima bo'ladi? Bir uyum temir qoladi!

QO'CHQOR. Ha endi, buzmang-da, Olimtoy. Shunday narsani buzsangiz, uvoli tutib, qo'lg'inangiz akashak bo'p qolmaydimi! E-e, yetganlar bor, yetmaganlar bor... Xo'p de, Olimtoy, dil ketdi-da endi. Senga nima, bu bo'lmasa boshqasini yasab olaverasan, bizga o'xshagan so'qqaboshga qiyin... (Bechorasifat.) yolg'izlik yomon, Olimtoy, buni boshiga tushgan biladi...

(Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

E'tibor berilsa, matnda yordamchi so'zlardan faqat yuklamalar qo'llanilgan. Ko'makchi ham bog'lovchi ham qo'llanilmagan. Yuklamalar nutq jarayonida boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan faol qo'llaniladi. Ta'kidlash kerakki, ko'pchilik yuklamalar nutq jarayonida Qo'chqor va Alomat tomonidan nisbatan ishlatilgan. Pragmatik munosabatlarning aksariyati ham shu yuklamalar orqali yuzaga chiqarilgan, chunki ular taxmin, gumon, so'roq, taajjub, ta'kid, tasdiq, ayirish va chegaralash, o'xshatish kabi bir qator modal ma'nolarni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan ham bu o'rinda mazkur yordamchi so'z turi ahamiyatlidir. Bizningcha, matnni biriktiruv bog'lovchilarisiz tasavvur qilish mumkin, ammo nutqning shakllanishi va fikriy ifodalar qo'shimcha ma'no va munosabatlarni ifodalovchi yuklamalarni taqozo qilib turadi.

Qissada grammatik vositalar so'zlashuv uslubiga mos tarzda beriladi:

Qissada asar qahramoni qaysi kasbda faoliyat ko'rsatsa, o'sha sohaga doir atamalar ham faol ishtirok etadi, bu esa bu kabi asar matnlarida ot so'z turkumiga doir so'zlarning ustuvorlik kasb etishini ta'minlaydi. Umuman, qissada nutq vaziyatiga qarab turli o'rinlarda turli morfologik birliklar faol qo'llanishda bo'lganligi kuzatiladi. Bu holat esa so'z turkumlarining qo'llanilish chastotasiga doir tadqiqotlarning yanada asosli xulosalari uchun xizmat qiladi, ya'ni qaysi so'z turkumlari qaysi nutqiy vaziyatda uyushganroq, faolroq bo'lishi haqida muayyan xulosalarni taqdim qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 24 maydagi PQ-2993-sonli Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent, 2017 yil 25 may.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Boshbekov Sharof "Temir xotin", "Falakning gardishi" asarlari. Toshkent-2016.
4. Jo'rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqei va ma'naviy-uslubiy qo'llanilishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2002. – 24 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildlik. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
6. Xudoyberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2015. – 135 b.
7. Xolmurodova M. Xalq maqollari tarixi va ularning sotsiopragmatik talqini // Xalqaro turk dunyosi tadqiqotlari Simpoziumi. Ilmiy maqolalar jildi. – Baku, 2019. – B. 273-276.
8. Xolmurodova M. Milliy ma'naviyatning rivojlanishida xalq og'zaki ijodining o'rni (maqollar misolida) // Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 447-454.
9. G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. – № 2. – B. 28-30.
10. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: F.f.d. Diss. – Toshkent, 2011. – B. 94.